# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

№ 5 2024




*гуманитарные науки*
*естественные науки*
*технические науки*

ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

***2024***

**5-сан**

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.***

Нөкис

**5-сан *2024***

*сентябрь*

***Шөлкемлестириўшилер:***

***Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги, ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы***

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Муқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Мухаббат САЛАЕВА
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Вохид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ

**Janaberegnova A.J.** Mustaqil ishlarni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlariga oid tadqiqotlar nazariyasi ... 177
**Xudayqulova F.B.** Pedagogik faoliyatda kasbiy madaniyatning xususiyatlari ... 189
**Фозилов Б.З.** Кар ва заиф эшитувчи 5-7-синф ўқувчиларининг фуқаролик компетенциясини шакллантиришда лойиҳа методидан фойдаланиш йўллари ... 195
**Orınbetov N.T.** Akademik litsey o‘quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning didaktik ta’minoti ... 199
**Nizamova M. N.** Axborotlashgan zamonaviy jamiyatda bo‘lajak menejerlar kasbiy mobilligini rivojlantiruvchi ta’limni tashkil etish ... 204
**Kadirova G.X.** Ta’lim jarayonida varativ o‘quv topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari ... 209
**To’raqulova M.Q., Fatullayeva S.I.** Xorijiy tajribalar asosida oliy muhandislik maktabi faoliyatini tashkil etish orqali yaratuvchi magistrlarni tayyorlash metodikasi ... 214
**Yuldashev S.N.** Loyihaga asoslangan ta’lim jarayonni tashkil etish metodikasi ... 224
**Куньлинь Ли.** Создание методического инструментария для развития экологической компетентности у будущих переводчиков и использование современных инноваций при его реализации ... 228

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

**Ibragimova D.I.** Isajon Sultonning tarixiy hikoyalari tematikasi ... 233

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

**Тажетдинова Г.А.** Жоқары билимлендириўде жасалма интеллекттен пайдаланыў зәрүрлиги ҳәм машқалалардың шешимлери ... 239
**Tleubaeva G.S.** Oliy ta’lim tizimiga sun’iy intellektni joriy etish ... 248
**Toxirov F.J.** Talabalarning mobil ilovalarni ishlab chiqishga oid kompetentligini rivojlantirishda simulyatsiya va virtual muhitlardan foydalanish imkoniyatlari ... 254
**Бўронова Г.Ё.** Виртуал робототехника тўгаракларини ташкил этишда замонавий ўқув платформаларидан фойдаланишнинг амалий имкониятлари ... 259
**Djumayev J.M.** Robototexnika darslarida talabalarni ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish masallari ... 267
**Axmedov A.B.** Professional ta’limda raqamli transformatsiyaning ahamiyati ... 275

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

**Oteniyazova P.E.** Qaraqalpaq xalıq awızeki kórkem dóretpelerinen biri bolǵan jumbaqlar tiykarında balalardıń til ósiriwin rawajlandırıw ... 282
**Ochilov F.I.** O‘quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning individual ta’lim amaliyoti ... 286
**Jabborova O.M.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari mazmuni ... 291
**Tashpulatova D.M.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya asoslarini o‘zlashtirishini tashhislash metodikasi ... 299
**Sayliyeva M. M.** Tabiiy fanlar turkumini o‘qitish jarayonida boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantirish ... 304
**Artikova N. Sh.** Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish ... 314
**Egamova G.A., Zikirova D. Sh.** Boshlang'ich ta'limda darslarni steam, stem технологиялари asosida tashkillashtirishga innovatsion yondashuvlar ... 320
**Kenjayeva F.Sh.** Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik va psixologik qobiliyatlarini shakllantirish ta’lim muammosi sifatida ... 325
**Sulaymanova M.P.** Boshlang’ich sinflarda "Tarbiya" fanining o’qitishda innovatsion metodlardan foydalanish metodikasi (xususiy maktablar misolida) ... 332
**Narimbetova Z.A., Asqarova N.J.** Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarni matematik savodxonligini oshirishda matematik diktantlardan foydalanish ... 337
**Мамбеталиев Қ. А.** Бошланғич синфда ўқувчининг ёзма нутқини ривожлантириш ... 341

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TARBIYA ASOSLARINI O'ZLASHTIRISHINI TASHHISLASH METODIKASI

***Tashpulatova D.M.***
*ChDPU o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, tarbiya, boshlang'ich, metodika, o'quvchi, bilim, o'zlashtirish, tashxislash, ko'nikma, faoliyat, fazilat.
**Ключевые слова:** образование, воспитание, начало, методика, ученик, знания, усвоение, диагностика, умение, деятельность, добродетель.
**Key words:** education, upbringing, beginning, methodology, student, knowledge, assimilation, diagnosis, skill, activity, virtue.

**Резюме:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya asoslarini o'zlashtirishini tashxislash masalasi to'g'risida fikr yuritilgan va mualliflarning metodik tavsiyalari taqdim etilgan.
**Резюме:** В данной статье рассмотрен вопрос диагностики усвоения основ воспитания младшими школьниками и представлены методические рекомендации авторов.
**Summary:** This article examines the issue of diagnosing the assimilation of the basics of education by younger schoolchildren and presents the methodological recommendations of the authors.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida qo'yilgan sifatli ta'limga erishish vazifasi ijrosi jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalarini yuksaltirish ham muhim o'rin tutadi. Bunda nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslanish muhim masalalardan biridir.

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirishini tashxislab borish muhim ahamiyatga ega. Chunki tashxislash jarayonida yutuqlar va muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar majmui ishlab chiqiladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarning **tarbiya asoslarini** o'zlashtirishini tashxislash metodikasini ishlab chiqish ham dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda ana shu metodikaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongining shakllanganligini aniqlash.** Tarbiya asoslarining eng muhimi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongini shakllantirishdir. Shu ma'noda bu masalada quyidagilarni o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) o‘quvchilar ongida ezgu g‘oyalarning tarkib topganligi;

b) o‘quvchilar ongining kutilgan darajada shakllanganligi;

v) o‘quvchilar ongida tarbiyaviy asoslarning mavjudligi.

Ong – bu shaxsning muayyan g‘oya, fikr va qarashlari majmuidir. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongida ezgu g‘oyalarning tarkib topishi ularning tarbiya asoslarini o‘zlashtirishi bilan bog‘liqdir. Bunday ezgu g‘oyalarning asosiylarini yaxshilik va yomonlikni farqlash, maqsadga ega bo‘lish, bilim olishga intilish va o‘zgalarga hurmat kabilar tashkil qiladi. Pedagogik tashxislash jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongida ana shu g‘oyalarning tarkib topganligi maxsus testlar asosida o‘rganiladi. Buning natijasida o‘quvchilar ongida tarbiya asoslari bo‘lgan eng yaxshi g‘oyalarning mavjudligi aniqlanadi. Agar o‘quvchilar guruhi ongida illatlarga ega g‘oyalarning mavjudligi aniqlansa, ularni bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqiladi. Pedagogik tashxislash jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida g‘oyalarning tarkib topganligi qoniqarli darajada ekanligi aniqlansa, bunday darajani yanada yuksaltirish bo‘yicha tavsiyalar shakllantiriladi. Chunki inson ongidagi g‘oyalar, fikrlar va qarashlar majmui tarbiya asoslari bo‘yicha muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimiz milliy g‘oyasi asosida (insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik asosida) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongini shakllantirish bilan ularni tarbiyalash ishlari amalga oshirilmoqda.

Pedagogik tashxislashning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilar ongining kutilgan darajada shakllanganligini aniqlashdir. Bunda o‘quvchilarning o‘zini tuta bilishi, yomonlikdan tiyilishi, illatlarni yomon ko‘rishi va axloqsiz xatti-harakat qilmaslik kabilar o‘rganiladi. Chunki ongi shakllangan o‘quvchida yomonlik va illatlardan tiyilish mavjud bo‘ladi. Bu masalalarni o‘rganishda suhbat kabi metodlardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari suhbat jarayonida o‘zlarining ongli munosabatini namoyon qiladi va aynan ana shunday munosabat ularning tarbiya asoslarini o‘zlashtirishi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Shu sababli pedagogik tashxislashda mazkur masalalarni o‘rganish kutilgan samarani berishini eslatib o‘tish joiz. Pedagogik tashxislash bu borada boshlang‘ich sinflar kesimida qiyosiy asosda o‘tkazish kutilgan samarani beradi. Chunki sinflar kesimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongi shakllanganlik darajasi to‘liq namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning ongida tarbiyaviy asoslarning mavjudligini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tarbiya jarayoni nafaqat mashg‘ulotlar vositasida, balki jamoatchilik ishtirokida ham amalga oshiriladi. Ba’zida jamoatchilik beixtiyor boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga salbiy tarbiyaviy ta’sir

ko‘rsatadi. Shu sababli trening metodi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiya asoslarining mavjudligi aniqlanib baholanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Trening jarayonida o‘quvchilar guruhi o‘zlari o‘zlashtirgan tarbiya asoslarini berilgan topshiriqni bajarish vositasida namoyon qiladi. Shu ma’noda pedagogik tashxislashning ahamiyati shundaki, o‘quvchilarning kichik guruhlari asosida ularda tarbiya asoslarining mavjudligi aniqlanadi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya asoslarini o‘zlashtirishini tashxislashdan ularning ongini shakllanganligini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli ko‘p hollarda shaxsga baho berilganda “ongli odam”, ya’ni yaxshi odam deya baho beriladi.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fazilatlarning tarkib topganligini aniqlash.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya asoslarini o‘zlashtirishini aniqlashning eng muhim tayanchlaridan biri ularda fazilatlarning tarkib topganligidir. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) o‘quvchilarning umumiy fazilatlarini aniqlash;

b) o‘quvchilarning jamoada o‘zini tutishini aniqlash;

v) o‘quvchilarning notanish vaziyatda harakat qilishini aniqlash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumiy fazilatlarini sinf miqyosida aniqlab baholanadi. Fazilatlarning majmui keng ekanligini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli bunda tashxislash jarayonida quyidagicha yo‘l tutiladi: o‘quvchilarda mavjud yaxshi fazilatlar va yomon illatlar aniqlanib, qiyoslanadi. Agar nisbatan ko‘p foizni yaxshi fazilatlar tashkil qilsa sinf miqyosida tarbiyaviy asoslarni o‘zlashtirish ijobiy baholanadi, bordiyu yomon illatlar nisbatan ko‘p foizni tashkil qilsa “Tarbiya” o‘quv fanini o‘qitish metodikasini o‘zgartirish tavsiyalari ishlab chiqiladi. Chunki mazkur fan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiya ishini tashkil qilish, amalga oshirish va nazorat qilish bo‘yicha mas’ul o‘quv fani hisoblanadi. Aslida pedagogik tashxislashning eng muhim vazifalardan biri ham tarbiya asoslarini o‘zlashtirish bo‘yicha muammolarni aniqlash va bartaraf etish metodikalarini ishlab chiqishdir. O‘quv fanlarining barchasi o‘quvchilarda fazilatlarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan va amaliyoti tashxislash vositasida nazorat qilib boriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya asoslarini o‘zlashtirishni tashxislashda ularning jamoada o‘zini tutishi ko‘nikmasi ham o‘rganiladi. Unga ko‘ra, o‘quvchilarga umumiy tarzda savol yoki topshiriq beriladi. Aynan topshiriqni bajarish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zini tutishi ko‘nikmasi namoyon bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarda jamoaga hurmat, jamoa fikri bilan hisoblashish va jamoani eshita olishning tarkib topganligini

aniqlash muhimdir. Shu sababli mahoratli o‘qituvchilar turli vositalar bilan o‘quvchilarning jamoada o‘zini tutishi ko‘nikmasini aniqlab boradi. Bu ayniqsa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida muhim ahamiyatga egadir. Agar o‘quvchilar boshlang‘ich ta’limdayoq o‘zini tutish ko‘nikmasini egallasa, tarbiyaning bu asosi ularning keyingi faoliyatida keng imkoniyatlarni beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya asoslarini o‘zlashtirishini tashxislashda ularning notanish vaziyatdagi munosabatlari ham o‘rganiladi. Buning uchun o‘quvchilar uchun notanish bo‘lgan vaziyatlar bo‘yicha topshiriqlar beriladi va ularning javoblari tahlil qilinadi. Misol uchun, ikki o‘quvchi o‘zaro urishmoqda, siz qanday yo‘l tutasiz, mazmunida topshiriq berish mumkin. Bunday topshiriqlar javobida o‘quvchilarning notanish vaziyatlarda qanday munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi namoyon bo‘ladi. Mahoratli pedagoglar bunday notanish vaziyatlar imkoniyatlaridan keng foydalanishini eslatib o‘tish joiz.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fazilatlarning tarkib topganligini turli vositalar asosida tashxis qilish mumkin va bu bilan ularning tarbiya asoslarini o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyatga tayyorligini aniqlash.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z faoliyati davomida turli tarbiyaviy vaziyatlar, holatlar va harakatlarga duch keladi. Shu sababli bu boradi pelagogik tashxislashni amalga oshirish uchun quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) o‘quvchilarning maktabdagi faoliyatini o‘rganish;

b) o‘quvchilarning oiladagi faoliyatini o‘rganish;

v) o‘qvchilarning jamoatchilik joylardagi faoliyatini o‘rganish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z faoliyati davomida tarbiyalanganlik darajasini namoyon qiladi. Shu jihatdan ularning maktabdagi tarbiyaviy faoliyati o‘rganilganida ta’lim qoidalariga rioya qilishi, kiyinish madaniyati, ta’lim muassasasining jihozlariga munosabati va katta yoshlarga nisbatan muomalasi o‘rganiladi. Ko‘p hollarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining maktab qoidalariga amal qilishi tasavvur qilinadi, biroq ularning maktabdagi faoliyati maxsus o‘rganib ko‘rilganida tarbiya asoslariga rioya qilishi yoki qilmasligi namoyon bo‘ladi. bu muammoni o‘rganish pedagogik tashxislashning muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyati o‘rganilganda ularning oiladagi faoliyati ham aniqlanadi. Bunda ularning oilada o‘zini tutishi, oila a’zolariga munosabati, erkaligi yoki bosiqligi, o‘zidan kichiklarga muomalasi, o‘zga shaxslar oldida, masalan mehmonlar oldida, o‘zini tutishi

kabilar o‘rganilib baholanadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchlari aynan oiladi tarbiyalanganlik darajasini namoyon qiladi. Bu hol pedagogik tashxislashning muhim asoslaridan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyati o‘rganilganda ularning jamoatchilik joylardagi faoliyati ham aniqlanadi. Jamoatchilik joylarida, tadbirlar, o‘yinlar, mahalla, bayramlar kabilarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qanchalik faol bo‘lsa, ularning tarbiyalanganlik darajasi qoniqarli hisoblanadi. Chunki jamoaparvarlik, jamoa muhitini yoqtirish, jamoaga intilish va jamoaga ishonch kabi fazilatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbilanganlik ko‘nikmasini namoyon qilib turadi. Bularni o‘rganish ularning tarbiya asoslarini o‘zlashtirishini tashxislashda amaliy yondashuvlar bo‘lib xizmat qiladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligini o‘rganish va baholashda turli metodik yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu hol tashxislashning aniq ma’lumotlarni berishi uchun asos hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya asoslarini o‘zlashtirishini tashxislash metodikasini ularning ongining shakllanganligini, fazilatlarining tarkib topgaligini va tarbiyali faoliyatga tayyorgarligini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Bu masalalar oliy pelagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi.//www.ziyonet.uz.
2. Hasanboyev J., To‘raqulov Ch., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at.-T.: “Fan va texnologiya”. 2009.
3. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’lim diognostikasi. - Toshkent, 2023
4. Tashpulatova D. Boshlang‘ich ta’limda klaster yondashuv asosida o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish.-Toshkent, 2023.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

# «МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

**№ 5**

Нөкис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:
*А. Тилегенов, С. Нуржанов*

Баспаға таярлаған:
*А. Тилегенов*

Компьютерде таярлаған:
*П. Реймбаев, З. Ниязымбетова*

***Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54***
***Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34***
***e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,***
***mugallim-pednauk@umail.uz***
***www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz***
***www.KRTEACH.UZ***

***Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.***

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 09.09.2024. Форматы 70x100 $^{1}/_{8}$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №